

Journal of Social Research in Uzbekistan**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**HAKIM TERMIZI'S "KHATM AL-AWLIYA" AS AN IMPORTANT SOURCE IN THE SCIENCE OF SUFISM**

Dilshoda Vafoyeva

Master's student

Tashkent State University of oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: dilshodavafoyeva2710@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: Hakim Tirmidhi, Khatm ul-Awliya, Sufism, saints, guardianship, spiritual growth, religious ideas, moral education, spiritual development, Sufism, knowledge and wisdom.

Received: 01.03.25

Accepted: 03.03.25

Published: 05.03.25

Abstract: This work, written by Hakim al-Tirmidhi, is considered a crucial historical source in the field of Sufi knowledge. It provides detailed discussions on the status of saints, the concept of sainthood, and the spiritual development of individuals. The author elaborates on different levels of sainthood, their roles, and the distinctions between saints and prophets.

One of the central themes of this work is the essence of sainthood and its place in Islamic theology, where various theoretical perspectives are presented. The author's approach not only incorporates Sufi concepts but also analyzes their connection to Islamic law (Sharia). Additionally, the work delves into the virtues of saints, their role in society, the paths they traverse toward spiritual maturity, and the principles of self-purification and moral refinement. This work remains an essential resource for understanding the historical development of Sufi thought. The ideas it presents have significantly influenced later generations of Sufi scholars and have been widely studied and interpreted. As a result, this scholarly legacy continues to be an invaluable reference for researchers.

HAKIMTERMIZIYNING “XATM AL-AVLIYO” ASARI TASAVVUF ILMIDA MUHIM MANBA SIFATIDA

Dilshoda Vafoyeva

Magistratura talabasi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: dilshodavafoyeva2710@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Hakim Termiziy, Xatm al-avliyo, tasavvuf, avliyolar, valiylik, ma’naviy o‘sish, diniy g‘oyalar, axloqiy tarbiya, ruhiy rivojlanish, sufizm, ilm va hikmat.

Annotatsiya: Hakim Termiziy tomonidan yozilgan ushbu asar tasavvuf ilmida muhim tarixiy manba hisoblanadi. Unda avliyo maqomi, valiylik tushunchasi va insonning ruhiy kamoloti haqida batafsil ma’lumot berilgan. Muallif valiylik darajalarini batafsil bayon etib, ularning vazifalarini ochib beradi hamda avliyolar bilan payg‘ambarlar o‘rtasidagi farqlarni tushuntiradi.

Asarning asosiy mavzularidan biri – valiylikning mohiyati va uning islam dinidagi o‘rni bo‘lib, bu borada turli nazariy qarashlar ilgari surilgan. Muallifning yondashuvi nafaqat tasavvufiy tushunchalarini o‘z ichiga oladi, balki ularning shariat bilan bog‘liqligini ham tahlil qiladi. Shu bilan birga, valiyarning fazilatlari, ularning jamiyatdagi o‘rni, ruhiy yetuklik sari bosib o‘tgan yo’llari va ma’naviy kamolot tamoyillari haqida ham keng fikr yuritiladi. Bu asar tasavvuf ta’limotining rivojlanish tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Unda bayon etilgan g‘oyalar keyingi asrlardagi sufiylik ta’limotiga ta’sir ko‘rsatgan va ko‘plab mutasavviflar tomonidan sharhlangan. Ushbu ilmiy meros islam falsafasi va tasavvuf nazariyasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib, hozirgi kungacha tadqiqotchilar va tasavvuf ilmi bilan shug‘ullanuvchilar uchun qimmatli manba bo‘lib qolmoqda.

«ХАТМ АЛЬ-АУЛИЙА» ХАКИМА ТЕРМИЗИ КАК ВАЖНЫЙ ИСТОЧНИК В НАУКЕ СУФИЗМА

Дилишода Вафоева

студент магистратуры

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: dilshodavafoyeva2710@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хаким Тирмизи, Хатм уль-Аулия, суфизм, святые, опека, духовный рост, религиозные идеи,

Аннотация: Произведение, написанное Хакимом Тирмизи, считается важным историческим источником в области

нравственное воспитание, духовное развитие, суфизм, знание и мудрость.

суфийского знания. В нем подробно рассматриваются статус святых, концепция святости и духовное развитие человека. Автор объясняет различные уровни святости, их функции и различия между святыми и пророками.

Одной из центральных тем является сущность святости и ее место в исламском богословии, где представлены различные теоретические взгляды. Подход автора включает не только суфийские концепции, но и их связь с исламским правом (шариатом). Кроме того, в работе анализируются добродетели святых, их роль в обществе, пути духовного совершенствования и принципы нравственного роста. Данное произведение остается важным источником для изучения истории развития суфийской мысли. Идеи, изложенные в нем, оказали значительное влияние на последующие поколения суфийских ученых и широко изучались и интерпретировались. Таким образом, это научное наследие продолжает оставаться ценным ресурсом для исследователей.

KIRISH

Hakim Termiziy - islom olimi, hadisshunos va tasavvuf olimi sifatida tanilgan. Al-Hakim Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali at-Termiziy to‘liq ismi imom, hofiz, orif, zohid Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bishr al-Hakim at-Termiziyydir[13:440, 439]. U o‘z asarlarida insonning ma’naviy o‘sishi, tasavvufdagi darajalar, va avliyolarni tasvirlash orqali ko‘plab muhim diniy va axloqiy g‘oyalarni ilgari surgan. Hakim Termiziyning to‘liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Hasan ibn Bashir bo‘lib, islom olamining mashhur olimi, muhaddis va mutasavviflaridan biri. U Termiz shahrida tug‘ilib, hadis, fiqh, tafsir va tasavvuf ilmlarini o‘rganganligi, ko‘plab mashhur ulamolar bilan muloqotda bo‘lib, ulardan ta’lim olganligi haqida ma'lumotlar mavjud[5:447]. Uning asarları islom ilmlarining turli sohalarini qamrab oladi. (820-932). Misrlik olim, shayx Abdulfattox Abdulloh Barakaning yozishicha, Hakim Termiziy 80(ba’zi manbalarda 400) dan ortiq asarlar muallifi ulardan 60 ga yaqini bizgacha yetib kelgan. Hakim Termiziyning bizgacha yetib kelgan asarlaridan biri “Xatm al-avliyo” bo‘lib, unda allomaning valiylik haqidagi qarashlari keng bayon qilinadi. “Xatm al-avliyo” valiylik tizimi, uning qonun qoidalari asosiy talablari to‘kis bayonini topganligi bilan qadrlidir.

“Xatm al-avliyo” (bu asar ba’zi manbalarda, xususan, al-Hujvuriyning “Kashf ul-mahjub” nomli asarida “Xatm al-valoyat” shaklida keltirilgan) bo‘lib, unda tasavvuf tarixida birinchi marotaba «valoyat-valiylik» nazariyasiga va buning asosida “Al-Hakimiya” maktabiga asos solingan. Ushbu

asarda keltirilgan fikr-mulohazalar Termiz ahlining ba'zi qismlari o'rtasida keskin e'tirozga ham sabab bo'lib, natijada al-Hakim at-Termiziy ona shahri Termizdan badarg'a qilinib, bir qancha muddat Balxda ham yashagan. Uzoq yillar davomida yo'qolgan kitoblardan hisoblangan «Xatm ul-avliyo» 1965-yili Livanning poytaxti Bayrutda Parij ilmiy tadqiqotlar markazi islomiy madaniyat bo'limining a'zosi Usmon Ismoil Yahyo tomonidan nashr etildi. Valiylikning haqqoniyligi, shuningdek, uning nubuvvat va risolat bilan bog'liq bo'lgan jihatlari «Xatm ul-avliyo» kitobining bosh mavzusi hisoblanadi. Muqaddima va 29 faslda murid va shayx o'rtasida bo'lib o'tgan savol-javob tarzida ta'lif etilgan.

Bu kitob valoyat masalasini birinchi marotaba mukammal bir nazariya va ajoyib maqolalar turkumi shaklida tasavvufga taqdim etishi bilan alohida ahamiyatga molik. Uning eng mashhur asarlarından biri bo'lgan "Xatm ul-avliyo" asari, tasavvufdagi avliyolarni va ularning ma'nnaviy rivojlanish yo'llarini o'rgatadi. Bu asar, nafaqat diniy bilimlarni o'rganishga, balki insonning ruhiy holatini to'g'ri shakllantirishga yo'naltirilgan.

Termiziyning "Xatm ul-avliyo" asarida avliyolarni, ularning spiritual darajalari (manaviy daraja) va bu darajaga erishish yo'llarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Asarda keltirilgan g'oyalar bugungi kunning tasavvufiy fikrlari, axloqiy tarbiyasi va ma'nnaviy o'sishi uchun naqadar dolzarb bo'lib, ularning tarixi va zamonaviy hayotga ta'siri haqidagi tafakkur yanada rivojlantirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hakim Termiziyning asarlarini o'rganish, tasavvuf ilmiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Termiziyning "Xatm al-avliyo" asari, nafaqat diniy, balki axloqiy va ma'nnaviy rivojlanish bilan bog'liq fikrlarni o'z ichiga oladi.

Hakim Termiziyning "Xatm al-Avliyo" asari tasavvuf tarixida alohida o'rinn tutadi. Ushbu tadqiqot davomida foydalilanigan adabiyotlar asarning mazmun-mohiyatini, avliyolik tushunchasini, valoyat nazariyasi va uning keyingi mutasavviflarga ta'sirini o'rganishga xizmat qiladi. "Xatm al-Avliyo"ning qo'lyozma va nashr qilingan variantlari o'rganildi. Jumladan, Qohira, Bayrut va Damashq kutubxonalarida saqlanayotgan qo'lyozmalar kataloglari tekshirildi. Usmon Yahyo tomonidan tayyorlangan ilmiy nashrlardan ma'lumotlar keltiriildi. Hakim Termiziyning avliyolik nazariyasi Ibn Arabiy, Abd al-Qodir Giyloni kabi mutasavviflarning g'oyalari bilan taqqoslandi. "Xatm al-Avliyo" tushunchasi nabaviy va valoyat tushunchalari bilan qanday bog'liq ekani tadqiq qilindi. Asarda "Xatm an-Nubuvva" (payg'ambarlikning muhri) va "Xatm al-Valoya" (valilar muhri) o'rtasidagi farq tahlil qilindi. B. Radtke va J. O'Kane tadqiqotlarida Hakim Termiziyning avliyolik haqidagi qarashlari qanday talqin qilingani ko'rib chiqildi. A. Palmer (2015) va Ahmad Abdurahim Soyih kabi zamonaviy olimlarning "Xatm al-Avliyo"ga doir sharhlari va ularning tasavvuf tarixidagi yondashuvlari solishtirildi. Hakim Termiziyning valoyat nazariyasi va uning islom falsafasi, ayniqsa tasavvuf falsafasi bilan bog'liq jihatlari ko'rib chiqildi. "Xatm al-Avliyo"ning shariat, tariqat va

haqiqat doirasida qanday izohlangani tahlil qilindi. "Xatm al-Avliyo" asari tasavvufiy nazariyalarning shakllanishida muhim o'rinni tutadi. Foydalilanilgan manbalar orqali asarning ilmiy nashrlari, tasavvufdagi ta'siri, zamonaviy sharhlari va islom falsafasidagi o'rni aniqlandi. Tadqiqot davomida Hakim Termiziyning avliyolik tushunchasi, valoyat darajalari va "so'nggi valiy" masalasi bo'yicha ilgari surgan fikrlari har tomonlama tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, Hakim Termiziy tasavvuf falsafasida mustahkam asosga ega bo'lgan valoyat nazariyasini ishlab chiqqan bo'lib, uning g'oyalari keyingi tasavvufiy oqimlarga va mutasavviflarga katta ta'sir ko'rsatgan.

Tadqiqotchilar Termiziyning bu asarini tasavvufdagi avliyolarni o'rganish, ularning hayotini va o'zaro bog'liqligini tushunishga oid muhim manba sifatida qadrlashadi.

Tarixiy-qiyosiy metodi "Xatm al-Avliyo" asarining qanday talqin qilinganini tahlil qilish uchun ishlatildi. Hakim Termiziy bilan Ibn Arabiy va boshqa mutasavviflarning avliyo haqidagi qarashlari solishtirildi

Tahlil va sintez metodi orqali "Xatm al-Avliyo"da ilgari surilgan asosiy g'oyalar tahlil qilinib, ularning tasavvufiy doiradagi o'rni aniqlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Tasavvuf tarixi davomida o'zlaridan keyingi mutafakkirlarni o'z g'oyalari bilan harakatga keltirgan sermahsul so'fiylardan biri Hakim Termiziydir. So'fiylik Termiziy tutgan yo'l bo'lib, uning asosiy maqsadi Islomning deyarli barcha jihatlarini tushunish va tushuntirish bo'lib, uning asosiy manbalari Qur'on va Sunnatdir. U boshqa diniy ilmlardan ham bahramand bo'lsa-da, asosan so'fiylik nuqtai nazaridan masalalarga murojaat qilgan. Termiziy qalamiga mansub asarning asl nomi "Sirat ul-avliyo" bo'lib, muallifning o'z asarlaridan ma'lum bo'ladi. Ammo adabiyotda asarning asosiy muammoli jihatini tashkil etuvchi xatmiyat masalasi birinchi o'ringa chiqqanligi sababli u shu nom bilan atala boshlandi. Xuroson so'fiylar hayotining ilk namunasini tashkil etuvchi asar muqaddimasidagi gapga asoslanib, 270/883 yilda yozilganligi iddao qilinadi. Termiziyda yozilgan asarning markaziy mavzusi valiylik va unga oid masalalardir. Tasavvuf tarixida, payg'ambarlik va avliyolik mavzusini har tomonlama muhokama qilgan va tadqiq qilgan birinchi asaridir. Ilk so'fiylik tafakkuri duch kelgan asosiy muammolar payg'ambarlik va valiylik o'rtasidagi chegarani qayerda qo'yish va payg'ambarlik nufuziga dahl qilmasadan, avliyolarning mavqeini qanday aniqlash mumkin edi. Shu jihatdan asar so'fiylarning gnoseologik da'volarini oydinlashtirishda tanqidiy ostonani ifodalaydi.

"Xatm al-avliyo"ning muqaddimasidagi ma'lumotga asoslanib bu kitobni 270/883-yilda yozgan bo'lishi mumkinligi iddao qilinadi. Hakim Termiziy haqidagi tadqiqotlari bilan mashhur Bernd Radkening yozishicha, yozuv yo'li va mazmui III/IX asrga mos keladi. Asarning 70-80-yillar orasida yozilganiga ishora qiladi[18:3].

Xatmu'l-avliyo qo'lyozmalari joylashgan kutubxonalar:

a. Sulaymoniyda ko‘chirilgan, Fotih, 5322 (153b-168b), 947h.

b. Beyazit, Veliyyuddin, 770 (90a-127b).

c. British Museum, Orients, 8348 (95b-124a) Xatm ul-avliyo Birinchi marta Usmon Yahyo tomonidan Termiziyning “Badv ush-shan” avtobiografiyasi va oxirgi qismi mavzuga oid turli mualliflarning matnlari bilan birga nashr etilgan (Beyrut 1965). “Xatm ul-avliyo”ni ingliz tiliga tarjima qilgan Bernd Radtke Usmon Yahyoning nashri barcha qo‘lyozmalarni ko‘rmaslik va unda noto‘g‘ri yozuvlar borligi kabi sabablar tufayli sog‘lom emasligini aytadi[19:485].

“Xatm ul-avliyo” ingliz tiliga Bernd Radtke va Jon O‘Kane tomonidan tarjima qilingan va Termiziya tegishli “Baduvv ush-shan” risolasining tarjimasi bilan birga nashr etilgan. Asarni turkiy tilga tarjima qilishga harakat qilingan bo‘lsa-da, tarjimon noma’lum bo‘lgan bu asar ongli ravishda qilingandek tuyuluvchi o‘ta katta tarjima xato va buzilishlarga to‘la, ishonchli tarjima emasligini ta’kidlash lozim.

Yozilgan kundan boshlab ham so‘fiylar, ham so‘fiy bo‘lman davra olimlari tomonidan tanqidga uchragan Xatm ul-avliyo Ibn Arabiygacha bo‘lgan taxminan uch asrlik davrda yetarlicha e’tiborga sazovor bo‘ldi, deb bo‘lmaydi. Lekin Sulamiy (vafoti 412/1021), Hujviriy (vaf. 465/1072) va Abdulqodir G‘iyaniy (vaf. 562/1167) kabi so‘fiylar turli vaqtarda “Xatm ul-avliyo”dan bahramand bo‘lganlari ma'lum. Sulamiy ham tafsirida, ham risolalarida “Xatm ul-avliyo”dan iqtibos keltirgan. Hujviriy asarining tarjimalarida Termiziy haqida biografik ma'lumot bergandan so‘ng, so‘fiy tariqatlari haqida ma'lumot berilgan bo‘limda Termiziyning, ayniqsa, avliyolik va mo‘jizalar haqidagi qarashlarini “Hakimiyya” nomi bilan izohlaydi. “Xatm ul-avliyo”ga asoslanib, bu mavzuda o‘z davriga qadar ilgari surilgan turli tafsirlarni batafsil bayon qilgan[7:325-336].

Asar yozishning klassik turi bo‘lgan savol-javob usulida yozilgan. Asar muqaddimasida mualliflik huquqining paydo bo‘lishiga odamlarning vasiylik masalasi haqida gapirgani va adresatning Hakimga vasiylik haqida bir qancha savollar bergani sabab bo‘lganligi qayd etilgan. Kirish va yigirma to‘qqiz bobdan iborat asarda vasiylik ta‘limotidagi eksklyuzivlikka urg‘u va ajratish g‘oyasi birinchi marta nazariy asosga ega bo‘ldi. “Avliyoyi haqqulloh” va “avliyoulloh” tushunchalari bilan dindorlikdagi bosqichma-bosqichlik va elita guruhining mavjudligini ochib berishga harakat qilindi. Bu g‘oyani ishlab chiqishda shialarning nasl-nasabga asoslangan tafovut g‘oyasi va mo‘tazilaning barcha mo‘minlarni o‘z valiy sifatida qabul qilish va ajratishni rad etish munosabati chiqarib tashlandi. Payg‘ambarlik va avliyolik munosabatlari mazmunida payg‘ambarlar va elchilar bilan bir qatorda hadislar ham tilga olinib, payg‘ambarlar vahiyisiga javoban avliyolarning ilhomni zikr qilindi. Vahiyini himoya qilishda Ruh ilmiga hamroh bo‘lganidek, avliyoning ilhomini osoyishtalik himoya qiladi, deb da’vo qilgan Hakim avliyolik ilmining gnoseologik ahamiyatga ega ekanligini aniqlashga harakat qiladi. Yana payg‘ambarlikning xotami bor degan fikrga parallel

ravishda avliyolarning ham xotami borligini eslatib o‘tadi. Hakim Termiziy “Xatm al-avliyo”da ana shunday fikrlar tufayli valiylikni payg‘ambarlikdan ustun qo‘yanligi aybiga duch keldi.

Uning boshqa asarlaridan farqli o‘larоq, munozarali jihatи kuchli bo‘lgan “Xatm al-avliyo” asaridagi tanqidlaridan ham tushunilishi mumkinki, Termiziy o‘z muhitidagi so‘fiylik hayotidan qoniqmaydi. U o‘z tanqidlarining nishoni sifatida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shaxslar yoki guruhlarni nomlamasada, uning nazarda tutayotgani melametlar va ba’zi shialarga yo‘naltirilgan guruhlar ekanligi tushuniladi. Asarda tanqid dozasini oshirgan Hakim Termiziy so‘fiylikdan foydalanayotgan, deb o‘yaydigان shunday guruhlar haqida “bu yo‘lning zardushtiyлari” kabi qattiq iboralarni ishlataadi.

“Avliyo” sozi arab tilidan olingan bo‘lib, “valiya” fe’lidan yasalgandir.

Bu fe’l:

- 1) yaqin bolmoq;
- 2) qoshilmoq;
- 3) boshqarmoq, voliylik qilmoq;

4) mudirlik qilmoq, idora qilmoq kabi ma’nolarni anglatadi. Avliyo sozi “valiy” sozining koplik shaklidir. “Valiy” sozi ham oz ornida: 1) yaqin; 2) tugishgan; 3) qarindosh; 4) mulkdor, mulk egasi; 6) vasiy, homiy; 7) valiy, avliyo (Allohning dosti) degan ma’nolarni beradi.[17:19]

Hakim Termiziy nomi zikr etilganda birinchi bo‘lib yodga “Xatm al-avliyo” kelishi tabiiy. Bu asarda tasavvuf tarixida ilk bor payg‘ambarlik va valiylik masalasi qiyosiy mufassal bayon etilgan. Bu asarda Termiziy yoritgan mavzular o‘zidan keyin yashagan ko‘plab so‘fiylarning, xususan, Ibn Arabiyning e’tiborini tortdi. Asar tasavvufdagи avliyolarni va ularning ruhiy darajalarini tasvirlaydi. Asarda keltirilgan g‘oyalar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda tahlil qilinadi:

1. Avliyolar va ularning ruhiy darajalari: "Xatm ul-avliyo" asarida avliyolarni tasvirlash, ularning ma’naviy o‘sish yo‘llari, hamda bu darajaga erishish uchun kerak bo‘lgan axloqiy va diniy fazilatlar muhim ahamiyatga ega.

2. Tasavvuf va ma’naviy o’sish: Asarda tasavvufda ma’naviy o’sishning bosqichlari keltiriladi, bunda insonning ichki holati, qalbini tozalash, va Yaratganga yaqinlashish yo‘li ko‘rsatiladi. Termiziyyning tasavvufdagи g‘oyalarida axloqiy poklanish va ruhiy rivojlanishning ahamiyati ta’kidlanadi.

3. Avliyolarni insoniyat uchun namunalar sifatida ko‘rsatish: Termiziyyning asarida avliyolar insoniyatga o‘z hayotlari orqali ma’naviy yo‘nalishlarni ko‘rsatadilar. Ular nafaqat diniy bilimlarni, balki hayotdagи to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadigan namunalar sifatida ishlataladi.

Hakim Termiziyyning “Xatm al-avliyo” haqidagi ta’limoti olimlarning dolzarb mavzularidan biriga aylandi va butun Xuroson, ayniqsa, Termiz va Balxda keng tarqaldi. O‘rta asr sufiy olimlarining ham ko‘pchiligi bu ta’limotni qo‘llab quvvatlaganlar. Jumladan, Imom G‘azzoliy, Shihobuddin Suhravardiy, Suyutiy, Bidlisiy va Bahouddin Naqshband kabi tasavvuf va tariqat ahllari

allomaning ta’limotlaridan ta’sirlanganlar[20:183]. Ana shulardan biri fors tilidagi tasavvufga oid ilk asar muallifi Ali ibn Usmon Jullabiy Hujviriy (vaf. tax. 1076 y.) bo‘lib, u o‘zining mashhur “Kashf almahjub” asarida Hakim Termiziy ta’limotini qo‘llab-quvvatlab, uning valiylik haqidagi qarashlarini quyidagicha izohlaydi: “Tasavvuf va ma’rifatning asosi valiylikka tayanadi. Ko‘ramizki, Alloh taolo O‘zi uchun valiyarni tanlab olib, ularni O‘z suhbati bilan bahramand etgan va O‘z mulkiga hokim qildi. Valiyarni turli karomatlar bilan siyladi va ta’maning fasodlaridan, nafs va havoning vasvasalaridan pok qildi. Fikrlarini Alloh haqida o‘ylash bilan band qildi. Ma’rifatlarini o‘zi bilan jam qildi. Valiylar avval ham bo‘lganlar, hozirda ham mavjud, Xudo xohlasa qiyomatgacha bo‘ladilar. Alloh ularni boshqalardan afzal ko‘rdi va Muhammad (s.a.v) dinlarini himoya qilishni va’da qildi. Bu din uchun ulamolar nazdida naql va aql hujjat bo‘ldi. Ko‘rish va eshitish esa avliyolar nazdida dalildir. Bu borada mo‘taziliylar va hashaviylar bizga qarshi bo‘lganlar. Mo‘taziliylar muslim muslimdan ustun bo‘ladi, ammo valiy valiydan, nabiyalar esa bir-birlaridan afzal bo‘lолmaydilar, - deydilar. Bu kufrdir! Hashaviylar bu borada xuddi mo‘taziliylar kabi fikrdalar. Ular ham buni inkor qilganlar. Avliyolar bu olamning hokimlaridir. Alloh ularni bu ishga tayinlagan. Ularni nafslariga ergashmaydigan qildi. Ularning halolligi barakotidan osmondan yomg‘ir yog‘adi, pokiza hayotlari tufayli yerdan ekinlar unadi. Ularning duolari bois musulmonlar kofirlarni yengib kelmoqdalar. Valiylar gunohdan pok emaslar. Bu faqat nabiylargaga xosdir. Lekin valiyliklari bois fitnadan himoya qilinganlar. Sufiy shayxlar: “Xalq oldida doimo avliyolar hamma vaqt payg‘ambarlardan pastroq darajadadir”, – deydilar. Payg‘ambarlar avliyolardan afzaldirlar. Chunki valiylikning eng cho‘qqisi nabiylikning boshlanishidir. Ba’zi nabiyalar valiyardir. Lekin hamma valiylar ham nabiy emasdир. Valiyarning ayrim vaqt va holatlari nabiylar huzuridagi maqomdir. Bu maqom nima? Bu sir. Bu sunnat va mutasavviflarning usulidir”. Hujviriy Hakim Termiziyning so‘zlarini davom ettirib, valoyatning siri payg‘ambarlikdan afzaldir, deb e’tirof etadi. Hakim Termiziyning “valoyat nazariyasi”dan eng ko‘p ta’sirlangan va o‘z asarlarida bu mavzuga alohida to‘xtalgan olimlardan biri ibn Arabiydir. Ibn Arabiyning “valiylik”ka oid qarashlarida Hakim Termiziyning ta’siri yaqqol seziladi. Ibn Arabiy kitoblarida Hakim Termiziy asarlaridan ko‘plab yirik lavhalarni iqtibos qilib keltirganligi buning yorqin dalilidir[20:185]. Shuningdek, ibn Arabiy “Xatm ul-avliyo” xususida quyidagi hadisni dalil qilib keltiradi: “Avvalgi payg‘ambarlarga nisbatan mening ahvolim shunga o‘xshaydi: Odam (a.s) bir bino quribdi. Chekkasida bir tosh sig‘adigan darajada tosh qoldirib, binoni tamom qurib bitiribdi. Uyni tashqaridan tomosha qilganlar “koshki shu yerga g‘isht qo‘yilsa edi”-debdilar. O‘scha g‘isht menman. Men xotamun nabiyinman”. Ibn Arabiy tush (ro‘yo) orqali bu bo‘shliqni, biri oltin, biri kumush ikki g‘ishtlik joy sifatida ko‘rgan. Kumush g‘ishtning xotamul avliyoning zohiriy jihatiga, oltin g‘ishtni esauning botiniy jihatiga ishora etishini aytgach, bunday degan: “Xotm al-avliyo” ilmu ma’rifatini shunday bir manbadan oladiki, payg‘ambarga vahiy keltirgan malak ham o‘scha narsadan oladi”. Ibn Arabiy “valiy nabiydan ustundir”, degan fikrni

o‘rtaga tashlab, uni “Fusus al-hikam” asarida: “Bir kishi “valoyat nubuvvatdan ustun” deganini yoki undan shunday rivoyat naql etilganini eshitsang, bilgingki, u faqatgina biz aytgan haqiqatni nazarda tutib aytgandir. Hatto ulardan birining “valiy-nabiy va rasuldan ustundir” degan gapini eshitsang, u bu so‘zi bilan bir shaxsni ko‘zda tutgandir. Chunki u shaxsning nabiy va rasullik maqomidan valiy maqomi yanada mukammaldir. Aksincha, nabiyga bog‘liq bo‘lgan valiy hech vaqt nabiydan ustun emas. Zero, tobe bo‘lgan kishi tobe bo‘lgan narsasida aslo o‘zi tobe bo‘lgannidan o‘tib keta olmaydi. Agar tobe bo‘lgan shaxs tobe bo‘lganidan o‘tib ketsa edi, tobe bo‘lmasdi. Buni yaxshilab tushunib yet[20:134]!”, - deb fikrlarini izohlaydi.

Shu bilan bir qatorda uning “xatm al-avliyo” borasidagi qarashlariga keskin qarshi chiqqanlar ham bo‘lgan. Shunday mutasavviflardan biri Ibn Taymiya (vaf.1328 y.)dir. U hanbaliylik mazhabiga mansub faqih va ilohiyotchi olim bo‘lgan. Ibn Taymiya Alloh valiylarining afzali haqida shunday deydi: “Alloh valiylarining afzali Uning nabiyalaridir. Nabiyalarining afzali rasullaridir. Rasullarining afzali ulul azm, ya’ni azmu matonat sohibi bo‘lgan Payg‘ambarlar: Nuh (a.s), Ibrohim (a.s), Muso (a.s.), Iso (a.s) va Muhammad (s.a.v)lardir. Ulul azmnинг afzali Muhammad (s.a.v)dir”. Ibn Taymiya “xatm al-avliyo” masalasiga juda keskin munosabat bildirib, bu ibora botil bo‘lib, bu iborani ilk bor Hakim Termiziy qo‘llab, bu mavzuda asar yozganini va “hotam al-avliyo” masalasini qo‘llab-quvvatlaganlarning barchasi, shu jumladan Ibn Arabiy ham o‘zini “Xatm ul-avliyo” deb hisoblaganini aytib o‘tadi[14:101].

Hakim Termiziy o‘z zamonasining diniy va dunyoviy ilmlaridan har tomonlama chuqur bilimga ega bo‘lgan olimlardan edi. Hakim Termiziy “Hikmat bu bilim” degan g‘oyani jiddiy himoya qilgan hamda sulukda ilm maqomini olishi yo‘lida ko‘p jonbozliklar ko‘rsatgan. Uning mukammal ilmi va beqiyos salohiyatiga ko‘pchilik allomalar yuksak baho bergenlar. Jumladan, buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy “Nafahot ul-uns” asarida, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida uni eng ulug‘ shayxlar qatorida zikr qilganlar va mutasavviflarning ikkinchi bo‘g‘iniga kiritganlar. Xususan, Alisher Navoiy hazratlari Hakim Termiziy to‘g‘risida quyidagi ma’lumotlarni keltirgan: “Muhammad bin Ali Hakimi Termiziy-ikkinchi tabaqadindur. Kuniyati Abu Abdullohdır. Mashoyixi kibordandur va Abu Turob Naxshabiy va Ahmad Hizravayh va Ibni Jalla bila suhbat tutubdur va ko‘p hadisi bor va zohir karomati va tasonifi (yozgan asarlari) bor”[20:183]. Shuningdek, Xoja Bahouddin Naqshband hazratlarining “Biz yigirma ikki yillardikim, Hakim Termiziy tariqatiga ergashamiz” va “Aziz avliyolarning peshvosi Xoja Muhammad ibn Ali Hakim Termiziyning ruhoniyyatiga tavajjuhim tushganda, har safar menga ta’rif va tavsifdan xoli tasavvuf namoyon bo‘ladi”[20:183], - deb uning ruhoni olamidagi yuksak martaba va maqomlarini alohida e’tirof etganining o‘zi ham allomaning tasavvuf ilmida tutgan o‘rni qay darajada ekanligini ko‘rsatadi.

Hakim Termiziyning "Xatm ul-avliyo"ning falsafiy, tasavvufiy va ma’naviy jihatlarini chuqur tahlil qiladi. U avliyolikni nafaqat ilohiy bir maqom, balki insonning o‘z ruhiy va ma’naviy

rivojlanishining natijasi sifatida ko‘radi. Termiziy asarida avliyolikning to‘rt darajasini tahlil qilib, har bir darajaning o‘ziga xos fazilatlarini va ularning inson ma’naviyati uchun ahamiyatini ko‘rsatadi.

Bundan shunday fikr chiqarish mumkinki, mo‘jiza payg‘ambarlarga, karomat esa ham nabiy, ham valiiga xos, mo‘jiza nabiylig da’vosi bilan mushtarak, nabiylig sharti esa karomatda mavjud emas[5:4], ya’ni Alloh payg‘ambarlarning har birining darajasiga ko‘ra, istagancha mo‘jiza beradi. Muso (a.s.)ning hassasining ajdarga aylanishi, Iso (a.s.)ning bir nafas bilan kasallarni tuzatishi, murdalarni tiriltira olishi, Muhammad (s.a.v.)ning Isro va Me’roj qilganliklari payg‘ambarlarning mo‘jizalariga misoldir. Muhammad (s.a.v.)ning eng ulug‘ mo‘jizalari “ummiy” bo‘lsalarda, Qur’oni Karim oyatlarini yoddan tilovat etishlari va ularning nazm va mazmun jihatidan bashariyat imkonida yo‘q oliy darajada aytilgan ilohiy vahiy ekanidir. Karomat (akrom, sharaf, karam, lutf va ehson) ruhiy ma’naviy kamolotga erishgan insonda favqulodda g‘ayritabiyy holatning zuhurlanishi va hayratlanarli voqe-hodisalar bo‘lib, valiylarda sodir bo‘lgan karomatlarning ayrimlari Qur’onning “Maryam”, “Ashobi Kahf”suralarida keltirilgan.

Asarda avliyolik, avvalo, shaxsiy ma’naviy erkinlikka erishish, Allohga bo‘lgan muhabbat, sabr va tafakkurga asoslanadi. Termiziy avliyolarni faqat o‘z manfaatlarini izlovchi insonlar deb bilmaydi, balki ular jamiyatni ma’naviy tozalashga, odamlarni ilohiy yo‘lga boshqarishga intiladigan, xalqqa xizmat qilishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan shaxslar sifatida tasvirlaydi.

“Xatm al-avliyo” asarining mazmuni va muhim g‘oyalari

“Xatm al-avliyo” asari Hakim Termiziy tomonidan avliyolik haqidagi tafakkurlarini shakllantirgan eng muhim asarlaridan biridir. Ushbu asar avliyo maqomining qanday erishish kerakligini, uning qanday bo‘lishi kerakligini, va avliyolarni qanday baholash kerakligini tasavvufiy nuqtai nazardan izohlaydi. Termiziy, avliyolarni, asosan, jamiyatga ma’naviy va ahloqiy ta’sir ko‘rsatuvchi, ular o‘zlarining hayotlari bilan yuksak namuna bo‘lib, boshqalar uchun yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadigan odamlar deb biladi.

Hakim Termiziyning asarlari hayotligidayoq e’tirof etila boshlagani va ba’zilariga sharhlar qilingan[16:441] mish-mishlar bo‘lsa-da, ularning hech biri zamon sinoviga dosh bera olmadi. Agar bu ma’lumot to‘g‘ri bo‘lsa, “Xatm al-avliyo” o‘z davrida sharhlangan yetakchi asarlardan biri deyish mumkin. Chunki bu yerdagi ayrim tushunarsiz iboralar izoh talab qiladigan masalalar qatoriga kiradi. Ammo shuni aytish kerakki, “Xatm al-avliyo” Termiziy vafotidan keyin boshqa muhim so‘fiy klassiklari kabi sharhlangan asar emas. Bu yerdagi ayrim qarashlarning tasavvuf doiralarida umuman qabul qilinmasligini bu holatning sababi sifatida ko‘rsatish mumkin. Ma’lumki, “Xatm al-avliyo”ni dastlab qisman Ibn Arabiy sharhlagan. “Al-Javabu'l-mustaqim, ama seelehu at-Termiziy al-Hakim” deb nomlangan ushbu sharhda Termiziy asarda javobsiz qolgan savollarga Ibn Arabiy tomonidan berilgan javoblar mavjud. O‘tkazilgan ikkita ilmiy tadqiqotda “Xatm ul-avliyo”dagi ba’zi hadislar sahihligi va mazmuni jihatidan muhokama qilingan.

Bular Ahmet Yildirimning “Hadisdagi tasavvufning asosiy ta’limotlarining asoslari (Anqara 2000-yil)” va Muhittin Uysalning “Tasavvuf madaniyatida hadis (Konya 2001-yil)” nomli asaridir.

Termiziy bu asarida juda ko‘p turli mavzularga to‘xtalib o‘tgan bo‘lsa-da, bir avliyoning bu nomga munosib bo‘lgunga qadar o‘ziga xos ma’noda bosib o‘tgan bosqichlarini mohiyatan payg‘ambarlik va payg‘ambarlik tushunchalaridan boshlab bayon qiladi va tahlil qiladi. Bu yerda uning avliyoning ruhiy taraqqiyotining psixologik jarayonlari haqidagi mulohazalari alohida ahamiyatga ega. Termiziy kichik hajmli “Xatm ul-avliyo” asarida quyidagi masalalarni bir-biri bilan bog‘lab yoritadi:

1. Avliyo tushunchasi va uning tahlili.
2. Avliyolarning zohiriy va ezoterik xususiyatlari.
3. Payg‘ambarlik va vasiylik o‘rtasidagi farq.
4. Vasiylikning turli darajalari va xususiyatlari.
5. Xatmu’l-avliyo, 6. Ilm, ilm va hikmat.
7. Vahiyning tabiatni, ulardagi vahiy va san’atning farqi. Qalbning turli o‘lchovlari.
9. Ruh va uning intizomi.
10. Qalb va qalb o‘rtasidagi munosabat.
11. Zikr va uning ahamiyati.

O‘z ishini dastlab avliyo tushunchasini muhokama qilishdan boshlagan Termiziy avliyonni ikkiga ajratadi: Vali-yu haqqulloh, valiyulloh. Ulardan birinchisiga oid izohidan ma’lum bo‘ladiki, vali-yu haqulloh iborasi bilan umumiy mo‘minlar yoki bu yo‘lga kirgan, lekin biron sababga ko‘ra birlikka erisha olmaganlarni nazarda tutadi. Valiyulloh qurbat (Arabcha. “kurbet”-yaqinlik, Allohga yaqinlik) darajasiga erishgan kishidir. Muallif mavzuga umumiy kirish so‘zidan so‘ng asarning qisqacha mazmuni bo‘lgan bir yuz ellikga yaqin savol beradi va ularni javobsiz qoldiradi. Boshqa tomonidan, “Xatm al-avliyo”ning deyarli barchasida bu savollarga javoblar mavjud.

Ma’lumki, valiylik kasbiymi yoki ilohiymi degan masala ilk davrlardan boshlab muhokama qilingan. Bu masalani ham o‘z asariga kiritgan Termiziy shunday deydi: “Kimki tavba qilib to‘g‘ri yo‘lga tushsa; U Alloh taologa yuzlanib, unga yetgunicha ixlos bilan harakat qilishni istaydi. U qo‘lidan kelgan barcha sa'y-harakatlarni qildi va sadoqati tufayli Alloh unga o‘z yo‘lini ko‘rsatdi”[9:407].

Termiziy avliyolarning zohiriy va ezoterik xususiyatlari haqida ham to‘xtalib, ularni tanib olishni osonlashtiradigan tashqi belgilar haqida shunday deydi: “Birinchisi, Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga berilgan savolga bergen javobidagi xususiyatdir. Ulardan: Allohnинг avliyolari kimlar? Deb so‘ralganda: “Ular bizni ko‘rganlarida Allohnı eslatuvchi zotlardir”, dedilar. Rivoyat qilinishicha, Muso (a.s.) “Ey Robbim! Senining valilaring kimlar savoliga shunday javob oladilar: Birinchisidan, “Ular shunday kishilarki, meni zikr qilsalar, ular ham eslanadilar, ular xotirlaganda

Men ham zikr qilinaman”. Ikkinchidan, ular ilohiy iroda kuchiga ega. Bu kuch tufayli hech kim ularga qarshi tura olmaydi. Uchinchidan, ular nurga egadir. Boshqacha aytganda, aql-idrok, yuksak zakovat, idrok etish, bilish, anglash kabi holatlarning qalbida ruhiy idrok qobiliyatidir Yurakda tug‘ilgan samimiy tuyg‘ular, olingen ilhomlar tufayli voqealarning ichki mohiyatini, ong va qalblardan o‘tayotgan narsalarni to‘g‘ri bashorat qilish va tashxislashdir. ega. Ularning to‘rtinchi xususiyati shundaki, ular ilhomga moyil. Besinchidan, ularga zulm qilgan kishi aqldan ozadi va yomon xotimaga duch keladi. Oltinchidan, ularga hasad qilishni odat qilganlardan tashqari barcha tillar ularni maqtashga rozi. Ularning yettinchi alomati, duolari qabul bo‘lib, juda qisqa vaqt ichida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tish (tayy-u Makon), suv ustida yurish, Xizir (a.s.) bilan suhbatlashish kabi turli yo‘llar bilan mo‘jiza ko‘rsatishlaridir. Xizr tog‘lari, tekisliklari va dengizlari bilan butun yer yuzini kezib, o‘zi bilan uchrashishni istaydigan odamlarni topadi.”[9:361] Avliyolarning bir-biridan ustunligi va mavqeい uchun asos qilib olgan mezoni payg‘ambarlardir. Uning fikricha, ba’zi bir payg‘ambarlar ma’lum xususiyatlariga ko‘ra boshqalardan ustun bo‘lganidek, ba’zi avliyolar ham boshqa avliyolardan ustundir[9:337]. Bu fikrga asos qilib keltirgan dalillardan biri sifatida Muhammad sollallohu alayhi vasallamga dunyoda hech kimga bermagan xislatlar berilganini takidlab, Termiziy ularning ba’zilarini hamma bilishi mumkin, qolganlari esa faqat Alloh tanlagan zotlargagina nozil bo‘lishini yozadi. Unga ko‘ra, Alloh taolo payg‘ambarlikning barcha qismlarini jamlab, ularni to‘liq to‘ldirib, O‘zining muhri bilan muhrlab qo‘yan.

Ayniqsa, Hakim Termiziyning xatm so‘zini muhr ma’nosida qo‘llaganini alohida ta’kidlash lozim. Unga ko‘ra, Alloh taolo payg‘ambarlikning barcha qismlarini jamlab, uni to‘liq va o‘z muhri bilan muhrlab qo‘yan. Bu nuqta juda muhim, chunki bu muhr tufayli shayton va ruh payg‘ambarlik maydoniga singib ketish yo‘lini topa olmaydi. Hz. Payg‘ambardan boshqa payg‘ambarlarda bunday xususiyat bo‘lmagani uchun ular qalblarining qalblariga ta’sir qilishiga ishonch hosil qila olmaydilar[1:340]. Hz. Termiziy Muhammadning mana shu xususiyatidan kelib chiqib, “Xatm al-avliyo” haqida shunday fikr bildiradi:

“Alloh taolo o‘z payg‘ambarining (s.a.v.) ruhlarini olsa, ummatlaridan qirqta rostgo‘y kishi chiqadi. Yer ularning yonida turadi va ular uning uyi (al-i bayt). Ulardan biri vafot etsa, uning o‘rniga boshqasi keladi. Ularning soni yo‘q bo‘lib, dunyo oxiratga kelganda, Alloh valiy yuboradi. Alloh uni tanlaydi, ajratadi, O‘ziga yaqinlashtirdi, avliyolarga bergenini unga beradi va unga "Xatm al-viloya"ni berdi. Shunday qilib, u qiyomatda boshqa azizlarga Allohnинг guvohi bo‘ladi. Muhammad (s.a.v.)da payg‘ambarlikda rostlik bo‘lganidek, u zotda ham shu muhr tufayli rostlik bor. Unga na shayton yaqinlasha oladi, na nafs bu vasiylikdan nasibasini oladi”[1:344].

Termiziyning jumla so‘ngidagi u payg‘ambarimizning xususiyatlariga o‘xshaydi degan fikri va yondashuvi turli doiralarning tanqidiga duchor bo‘ldi. Lekin Termiziy bu mulohazasining qanday

xavf xatar keltirishini yaxshi tushungan, xususan valiylik va payg‘ambarlik o‘rtasidagi farqga etibor qaratgan va bu borada bayonotlar bergen:

“Payg‘ambarlik va valiylik o‘rtasidagi farq shundan iboratki, payg‘ambarlik Allohdan ruh bilan kelgan vahiy sifatida kelgan so‘zdir. Vahiy tugagach, u ruh bilan muhrlanadi. Vahiyini qabul qilish u bilan sodir bo‘ladi.

U shu tarzda asoslangan bo‘lishi kerak. Kim buni inkor qilsa, kofir bo‘ladi. Chunki u Alloh taoloning kalomini rad etdi. Valiylik esa Alloh taolo boshqa yo‘l bilan hadis yetkazishni o‘z zimmasiga olgan kishiga tegishlidir. Shunday qilib, u hadisga erishadi. Bu hadis Alloh azza va jalladan ajralgan, haqiqat tili bilan aytganda, xotirjamlik bilan birga. Muhaddisning qalbidagi xotirjamlik o‘sha hadisni olqishlaydi, muhaddis esa uni qabul qiladi va u bilan xotirjamlik topadi”[1:346]

Hakim Termiziy yashagan davrda “Xatm ul avliyo” kitobini yozganliklari uchun Abu Abdurahmon Sullamiy aytadilar: “Kofirlikda ayblab Hakim Termiziyni Termizdan chiqardilar[12:429]. Bunga Termiziyning “Payg‘ambarlarning so‘ngisi bo‘lgani kabi avliyolarning ham so‘ngisi bo‘ladi”, degan so‘zlarini dalil qilishgan. Bu kishi go‘yo “Ularning maqomlarini Payg‘ambarlar va shahidlar havas qiladi”, degan hadisni hujjat etib valiylikni Payg‘ambarlik maqomidan yuqori qo‘ygan emishlar. Aslida bu kitoblarda bunga sabab bo‘ladigan hech narsa yo‘q. Hakim Termiziy valiylikni hech qachon nabiylikdan ustun qo‘ymaydi, balki valiylikni kengroq ma’no anglatishini tushuntirishga harakat qiladi. Afsuski, odamlar buni to‘g‘ri tushunishdan yiroq edi. Abdurahmon Sulamiy ham “Xaqoiq ut tafsir” kitobini yozganlari uchun shunday malomatlarga duchor qilinganlar.

Tasavvufdagi o‘rni va ta’siri

“Xatm al-avliyo” asari tasavvuf ilmi rivojida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu asar ko‘plab tasavvufiy oqimlar va olimlarga ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, Ibn Arabiy, Jaloliddin Rumiy, Abdulqodir Giloniy kabi tasavvuf arboblari Termiziy fikrlarini rivojlantirganlar. Ibn Arabiy bu asarni "tasavvufning nazariy asoslarini belgilovchi noyob asar" deb baholagan [16:133].

Hakim Termiziy tomonidan yozilgan “Xatm al-avliyo” asari tasavvuf ilmiga, ayniqsa avliyo tushunchasiga oid muhim nazariy va amaliy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Termiziy bu asarida avliyolik va uning darajalari, avliyolarning jamiyatdagi o‘rni, ruhiy poklanish va Allohga yaqinlashish masalalarini chuqur tahlil qiladi. Asar, nafaqat tasavvuf olimlari, balki jamiyatdagi har bir shaxsning ma’naviy o‘sishiga ham yordam beradi.

Termiziy o‘zining “Xatm al-avliyo” asarida avliyolarning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan jihatlarini, ularning shaxsiyatini va Allohga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganadi. Asar tasavvufning eng asosiy tushunchalaridan bo‘lgan avliyolik darajalarini ta’riflash orqali, tasavvufdagi ma’naviy yo‘lni ko‘rsatadi. Shuningdek, u avliyolarning jamiyatdagi ta’sirini ham yoritadi, chunki avliyo bo‘lish,

faqat bir kishining o‘ziga xizmat qilishi emas, balki butun bir jamiyatni ma’naviy jihatdan yuksaltirishdir.

“Xatm al-avliyo” asarida avliyolarning o‘z maqsadiga erishishdagi yo‘lini va ruhiy holatini tasvirlaydi. Avliyolarning yo‘li birinchi navbatda nafshi yengish, dunyo va uning ehtiyojlaridan cheklanishdir. Termiziy, avliyolarni, faqat Allohga xizmat qilishga qaratilgan, dunyo va uning moddiy ehtiyojlarini ikkinchi darajaga qo‘yadigan shaxslar sifatida ta’riflaydi. Ular, nafaqat o‘zining, balki boshqalarning ham ruhiy salomatligi uchun mas’uldirlar.

Avliyo, birinchi navbatda, o‘zining ichki olamiga nazar solib, nafsini tozalaydi, uni yengadi va faqat Allohnning yo‘lida xizmat qilishga niyat qiladi. Bu jarayon, ko‘plab amaliy mashqlarni o‘z ichiga oladi: zikir, ta’zim, sabr, shukur va hikmat. Termiziy avliyoning har bir amali va harakatini, uning ruhiy yuksalishiga olib boruvchi bir qadam sifatida ko‘rgan. U "Xatm al-avliyo" asarida, avliyoning bu jarayondan qanday o‘tishi va uning ma’naviy yuksalishidagi o‘zgarishlarni tasvirlaydi.

Asarda avliyolarning dunyo bilan munosabati ham alohida ta’riflanadi. Avliyolar dunyoni, faqat Allohnning amrini bajarish uchun vosita sifatida qabul qiladilar. Dunyo, ularga, Allohnning buyukligiga ko‘proq ishonish va uni yanada chuqurroq anglash uchun bir imkoniyatdir. Ular, dunyo va uning xushbo‘y narsalaridan voz kechib, faqat ruhiy maqsadlarini ko‘zlaydilar. Avliyolarning jamiyatdagi o‘rni va ularning jamiyatga ta’sirini ham ko‘rsatadi. Avliyolarning mavjudligi nafaqat ruhiy yuksalish uchun, balki ijtimoiy adolatli jamiyatning shakllanishiga ham yordam beradi. Avliyolar o‘zlarining ilohiy bilimlari bilan jamiyatga rahnamolik qiladi, odamlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi va yomonlikdan saqlanishga undaydi.

Asarda, avliyolar o‘zlarining ilm va hikmatlarini jamiyatga ularni tuzatishga chaqiradi. Ular nafaqat ruhiy holatlarini, balki har bir amallari va so‘zları bilan jamiyatni yuksaltirishga harakat qiladilar. Avliyolar, o‘zlarining holatlari orqali boshqalarga ilhom beradilar va jamiyatni yaxshilashga xizmat qiladilar.

Shuningdek, Termiziy jamiyatdagi ruhiy zaifliklarni ko‘rsatib, ularni tuzatishga chaqiradi. Uning fikricha, tasavvufning maqsadi, insonlarni yaxshilikka, mehr-oqibatga va adolatga chaqirishdir. Avliyolar, jamiyatda ruhiy va axloqiy ziddiyatlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynaydilar.

XULOSA

"Xatm ul-avliyo" asarining ilmiy va ma’naviy ta’siri ham juda katta. Asar, avliyo bo‘lishning nafaqat shaxsiy, balki jamiyat uchun ham ahamiyatini ta’riflaydi. Termiziy asarida, avliyolarning ma’naviy yo‘lni qanday o‘rganishi, nafshi qanday tarbiyalashi va Allohga qanday yaqinlashishi kabi muhim savollarga javob beradi.

Asar, tasavvufni o‘rganayotgan barcha kishilar uchun manba sifatida xizmat qiladi. Hakim Termiziy, o‘zining ilmiy va ma’naviy bilimlarini jamiyatga taqdim etgan, tasavvufdagi avliyolik

tushunchasini kengaytirgan. Asar, nafaqat tasavvuf sohasida ishlayotgan mutaxassislar, balki keng auditoriya uchun ham qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Avliyolik va ijtimoiy mas'uliyatdir. Hakim Termiziyning fikriga ko'ra, avliyo nafaqat Allohga yaqin bo'lish, balki jamiyatdaadolatni ta'minlash va odamlarga yordam berish mas'uliyatini ham o'z zimmasiga oladi.

"Avliyolik nafaqat Alloh bilan bog'lanish, balki Uning yaratgan maxluqotiga ham rahm-shafqat ko'rsatishni talab etadi"[2:101].

"Xatm al-avliyo" asari tasavvufning nazariy asoslarini belgilab bergen buyuk merosdir. Bu asar inson ma'naviyatini yuksaltirish, qalb va nafsni poklash hamda Allohga yaqinlashish borasida muhim yo'riqnomalar bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Al-Hakim at-Termiziy. Hatmu'l-evliya. çev.:Osman Yahya, Beirut: Dar al-Fikr, 1965.– S.340, 344, 346
2. Al-Hakim at-Termiziy. Nevadiru'l-usul. Beirut: Dar al-Fikr, 1992.– S. 73, 101.
3. Al Hakim at-Termiziy. Mesailu'l-meknune. Doru't-Turasi'i-Arabi, 1980– S. 150.
4. Abdulkâdir Geylânîç El-Ganye li tâlibi tarîki'l-Hakkç (cev.Osman Gürman) Beirut, ts., c. II, 2013–S. 140-142.
5. Абдулқодир Гийлоний (Фавсул Аъзам). Раббонийликни англаш ва раҳмоний файзни қозониш. Биринчи китоб. Таржимонлар: Муҳаммаджон Нуриддин, Олимхон Юсуф, Аброр Абдулазим, Абдулбоқи Азим. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – Б. 4
6. Abulhasan Ali ibn Usmon al-Jullobiy al-Hajviriy al-G'aznaviy. Kashf ul-mahjub. Tehron: 1376. – P. 442.
7. Ali ibn Osman el-Hucvirî, Keşfu'l-mahcûb: Hakikat Bilgisi, çev.: Süley-man Uludağ, İstanbul. 1982.– S. 325, 363.
8. Al-Hakîm at-Tirmîzî, Büdüvvü şe'n, tahk.: Osman Yahya, Beirut 1965, S.–31.
9. Al-Hakim at-Termiziy. Kalblerin Anahtarı Hatmu'l-evliyâ Kitabı, çev.: Ömer Öngüt, İstanbul 2002. – S. 337, 361, 407.
10. Ahmed Abdurrahman es-Sâiyih, es-Sülük inde'l-Hakîm et-Tirmîzî, Kahire 1988, – S. 42.
11. Ibn Arabiy. Futuhat al-Makkiyya. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2008. – B. 133.
12. Имом Абу Абдуллоҳ Шамсиддин Мухаммад ибн Аҳмад ибн Усмон Захабий. Сияру Альамин Нубало. "Машхур даҳолар сийрати". - Тошкент:– Sharq. Нашриёт– матбаа, 2015.– Б.429.
- الكتاب : سير أعلام النبلاء، المؤلف : شمس الدين أبو عبد الله محمد بن أحمد بن عثمان بن فائيمار الذهبي (المتوفى ـ 1374هـ) :
- الناشر : مؤسسة الرسالة، الطبعة : الثالثة ، الصحف 439-440، 1405هـ / 1985، مجلدان.

14. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017, B. 470, 101.
15. İslam Ansiklopedisiç Türkiye Diyanet Vakfi.
16. Osman Yahia, L’Histoire et classification de l’œuvre d’Ibn ‘Arabī. Damas, 1964. – S. 441
17. Ramazonov N. “Nasoyim ul-muhabbat” va uning manbalari // O‘zbek tili va adabiyoti, 2001. №1. – B. 19.
18. Radtke B. Muqaddime. Selasu Musannefat. Beyrut: Dar al-Fikr, 1992 – S. 3.
19. Radtke B. The Concept of Wilaya in Early Sufism”, Classical Persian Sufism, London 1993, – S. 486.
20. Тұrap Ү. Тасаввұф тарихи. - Тошкент: Истиқлол, 1999. – Б. 134.
21. Уватов Ү. Икки буюқ донишманд, - Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 77.